



QASHQADARYO VOHASINING TARIXIY O'RGANILISHI: BOSQICHLAR, NATIJALAR VA ISTIQBOLLAR

Quvvatova Maftunabonu Barot qizi,

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi Tarix mutaxassisligi 1-kurs magistranti

Tel: +998904254455

E-mail: quvvatovam18@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada Qashqadaryo vohasi Markaziy Osiyoning qadimiy madaniy va tarixiy hududlaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada vohaning tarixiy o'rganilishi bosqichlari, arxeologik qazilmalar natijalari, yozma manbalardagi ma'lumotlar hamda zamonaviy ilmiy tadqiqotlar tahlil qilinadi. Shuningdek, tarixiy o'rganish jarayonidagi muhim bosqichlar va ularga ta'sir etgan omillar xronologik asosda yoritiladi. Maqola Qashqadaryo vohasining ilmiy jihatdan tadqiq etilishi jarayoniga nazar tashlab, bu boradagi istiqboldagi yo'nalishlarni ham ko'rsatib beradi.

Kalit so'zlar: Qashqadaryo, tarixiy, arxeologiya, yozma manbalar, etnografiya, ilmiy tadqiqotlar, madaniy, voha .

ИСТОРИЧЕСКОЕ ИЗУЧЕНИЕ КАШКАДАРЬИНСКОГО ОАЗИСА: ЭТАПЫ, РЕЗУЛЬТАТЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ

Аннотация: В данной статье рассматривается Кашкадарьинский оазис как один из древнейших культурных и исторических регионов Средней Азии. Анализируются этапы его исторического изучения, результаты археологических раскопок, сведения письменных источников, а также современные научные исследования. Особое внимание уделяется важным этапам исторического изучения региона и факторам, повлиявшим на эти процессы в хронологическом порядке. Статья предоставляет научный обзор исследований, проведённых в Кашкадарьинском оазисе, и обозначает перспективные направления дальнейших изысканий.



Ключевые слова: *Кашкадарья, исторический, археология, письменные источники, этнография, научные исследования, культурный, оазис.*

HISTORICAL STUDY OF THE KASHKADARYA OASIS: STAGES, FINDINGS AND PROSPECTS

Abstract: *This article explores the Kashkadarya oasis, one of the ancient cultural and historical regions of Central Asia. It analyzes the stages of historical research on the region, results of archaeological excavations, information from written sources, and modern scientific studies. Additionally, the paper highlights key phases in the study of the region and the factors that influenced them in a chronological framework. The article provides a scholarly overview of the research conducted on the Kashkadarya oasis and outlines future directions in this field.*

Keywords: *Kashkadaryo, historical, archaeology, written sources, ethnography, scientific research, cultural, oasis.*

Kirish

Qashqadaryo vohasi O'zbekiston tarixida muhim o'rin tutadi. Ushbu hudud qadimdan Markaziy Osiyoning ijtimoiy, siyosiy va madaniy jarayonlarida muhim markazlaridan biri bo'lib kelgan. Tarixiy manbalar, arxeologik topilmalar va yozma hujjatlar vohaning ko'p asrlik tarixini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Qashqadaryo vohasi O'zbekiston tarixida o'ziga xos o'rin egallagan hududlardan biri hisoblanadi. Qadimdan buyon bu voha Markaziy Osiyoning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida muhim markazlardan biri bo'lib kelganligi manbalar orqali ma'lum. Tabarruk zamin sifatida tanilgan Qashqadaryo hududida qadimiy dehqonchilik madaniyati, ilk shaharsozlik an'analari, rivojlangan hunarmandchilik va turli sivilizatsiyalarning belgilari bugungi kunga qadar o'z izini saqlab kelmoqda.



Ushbu hududda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar, yozma manbalar tahlili va tarixiy izlanishlar vohaning boy va murakkab tarixini o'rganish imkoniyatini yaratadi. Ayniqsa, Neolit davridan boshlab ilk temir davr, antik davr, o'rta asrlar va keyingi davrlarda Qashqadaryo vohasi turli madaniyatlar chorrahasi sifatida shakllangan. Shu sababli, vohani o'rganish nafaqat mintaqaviy, balki umumiy tarixshunoslik uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Vohaning tarixi uzoq o'tmishga borib taqalib, ilk dehqonchilik madaniyatlari, qadimgi davlat tuzilmalari va turli etnoslarning shakllanish jarayonlari bilan bog'liqdir. Qashqadaryo vohasida qadimiy, tarixiy manzillar anchayin ko'p. "Qashqadaryoning quyi qismida, izlanishlar natijasida neolit davriga oid 45 ta qumtepa manzillar va 30 dan ortiq jez davriga talluqli turar joylar aniqlandi" degan fikr shu jihatdan e'tiborga loyiq.¹ Shuningdek, tarixshunos olimlar viloyatimiz hududidan minglab tarixiy yodgorliklarni aniqlab o'rganganlar. Ular orasida miloddan oldingi ming yilliklarga daxldor o'nlab obidalar, tarixiy manzillar borki, bugungi ilm-fan, madaniyat va me'morchiligimizda ularning o'rni shonli tariximizning mukammal asoslaridan biri hisoblanadi. Qarshi shahri Qashqadaryoning ko'rki, iftixoridir. Moziy bilan bo'ylashadigan shaharning qariyb uch ming yillik kechmishga ega. Miloddan ilgari IX- VIII asrlarda Keshk rud Qashqadaryoning quyi mansabida kichik bir manzil sifatida vujudga kelgan aholi maskani asrlar osha kengayib boradi. Milodgacha bo'lgan IX-VIII asrlarda Qashqadaryoning o'rta oqimida kichik bir manzil paydo bo'ladi va u zamonlar o'tishi bilan qishloq, shahar tusini olib, Naxshab deb atala boshlaydi. Asrlar kechib, Naxshabning tevarak-atrofi gavjumlasha boradi, ko'plab kishilik manzillari vujudga keladi. Qadimshunoslik izlanishlari Qashqadaryoning yuqori va o'rta qismlarida ham miloddan oldingi davrlarda talaygina o'troq manzillar mavjud bo'lganligini dalolat etadi. Chimqo'rg'on havzasining janubi-sharqiy hududidagi yodgorliklarni o'rganish natijasi bu joylarda hayot milodgacha bo'lgan I ming yillik boshlarida kishilik manzillari ko'rinishida voqe' bo'lganligini ko'rsatdi.

¹ Гулямов Я.Г., Исламов У., Аскарлов А. Первообитная культура в низовьях Зерафшана. — Т.: 1966. 21-бет



Qadimshunos olimlar Naxshab va Kesh zaminidagi bir qism obidalarni aniqlash va o'rganishga muvaffaq bo'ldi. Tarixshunoslik ilmi ham bu sohada diqqatga loyiq ishlarni amalga oshirdi. Ko'plab qo'lyozma manbalar tatqiq qilinib, xorijiy mualliflar asarlaridagi ma'lumotlar to'plandi. Bugungi kunga kelib, qadimiy madamjolarimiz, ular tarixini yaratish uchun yetarlicha asoslar bor. Mamlakatimiz janubida olis o'tmishdan e'tiboran vujudga kelgan madaniyat o'rta asrlardayoq olimlarga shaharlar tarixini yaratishga imkoniyat bergan. X asrda Nasafdan yetishgan muarrix Abul -Xoras Asad ibn Hamduvayx al-Varsiniy an-Nasafiy Nasaf va Kesh tarixiga doir "Kitob mufaharat ahl Nasaf va Kashsh"ni yaratadi. Uning bu kitobidan vahtida arab muarrixlari, xususan, Som'oniylar foydalangan. XI asrning ikkinchi choragi oxirlarida yashagan yana bir alloma Abul Abbos Ja'far ibn Muhammad al-Mustag'firi an-Nasafiy "Nasaf va Kesh tarixi" degan salmoqli kitob yozgan. XX asrning 40-yillariga kelib, XIX asr oxirlarida bo'lgani kabi, Qashqadaryoni o'rganish tag'in to'garaklardan boshlanadi.² Bu gal havaskor mustamlakachilar emas, balki Samarqandda, o'sha paytlar O'zbekiston Davlat universiteti deb yuritilgan oliygohda talabalar respublikaning boshqa shahar-qishloqlari qatori, janubiy manzillarga ham qiziqish bilan qaray boshlaydilar. Jumladan, A.I.Arustamovning "Buxoro viloyati Shahrisabz tumanining tarixiy-jug'rofiy ocherki" 1940 yilda O'zDU talabalar ilmiy to'garaklari to'plamida chop etiladi. Ikkinchi jahon urushidan (1941-1945y.) oldin O'zbekistondagi qadimiy yodgorliklarini o'rganish asosan Samarqand, Xorazm va qisman Surxondaryo, Buxoro viloyatarida olib borilgan edi. Urushdan oldingi yillarda Qashqadaryo vohasi, uning o'tmishi, tarixiy obidalar qadimshunoslik ilmining e'tiboridan chetda qolgan edi. Keyinchalik, mana shuni nazarda tutib, Qashqadaryo arxeologik yodgorliklarini o'rganishda arxeolog S. K. Kabanovning xizmati beqiyos, u quyidagi ma'lumotlarni keltirib o'tgan. Urushdan keyin Respublika Fanlar akademiyasining tarix va arxeologiya

²Ravshanov P. "Qarshi tarixi". – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006. – 128b.



instituti Qashqadaryoning o'tmish obidalarini o'rganishni va tadqiq etishni rejalashtiradi. 1946 yildan boshlangan bu jarayon o'z samarasini beradi. Arxeologik izlanishlar asosan quyi Qashqadaryoda hududida olib boriladi. Arxeologik qazuv jarayonlarining ilk natijalari haqida S.K.Kabanovning maqola va ma'lumotlari e'lon qilinadi. 1947 yilda uning O'z SSR Fanlar akademiyasi byulletenida "Ko'hna Fazli shaharidan topilgan Senmurva tasviri" maqolasi nashr etiladi. Ayni shu yilda uning "Qashqadaryoning quyi qismi yodgorliklari arxitektura tavsifi" hisoboti ham yozib tugallanadi. 1946-1948, 1952-1953, 1964-1967 va 1970-1972-yillar mobaynida Qashqadaryo vohasida 12 bor qazuv mavsumini o'tkazgan S.K.Kabanov 50-60-yillarda, shuningdek, 70- yillar boshlarida Qashqadaryo qadimiyatiga bag'ishlangan ko'pgina maqolalar, risolalarini ma'lum qilishga muvaffaq bo'ladi. S.K.Kabanov 1953-yilda arxeologik ma'lumotlarga asoslangan holda, III-VIII asrlardagi Naxshab haqida nomzodlik dissertatsiyasini o'z yakuniga yetkazadi. 40-yillar yakunida A.Z.Zaynutdinov Qashqadaryo viloyati arxeologik yodgorliklarini o'rganish ishlarida faol ishtirik etib va 1949-yilda "Qashqadaryo viloyati arxitektura yodgorliklarini tekshirish bo'yicha ekspeditsiya" deb nomlangan hisobotini tayyorlaydi. Biroq, ilmiy salohiyatli bu ish chop etilmay, arxivda qolib ketadi. 50-yillarda Qashqadaryoning qadimiy me'morchilik obidalarini o'rganish ishiga taniqli olima G.A.Pugachenkova ham ishtirok eta boshlaydi. Olima 1950-yilda Shahrisabzdagi "Dor us-saodat" me'morchilik majmuasini ta'mirlash muammosiga bag'ishlangan maqolasini e'lon qiladi³. G.A.Pugachenkova vohaning qadimiy san'ati, hunarmandchiligiga bag'ishlangan ishlaridan tashqari, Shahrisabz haqida 1976-yilda Moskvada nashr etilgan "Termiz, Shahrisabz, Xiva" nomli risolasini yaratadi. 60-yillar boshlarida respublika janubi o'tmishini tadqiq etish ishlariga M.Ye.Masson, A.Asqarov, Z.I.Usmonova singari taniqli olimlar ham bosh qo'shadilarki, bu, shubhasiz, juda katta ilmiy samaralar beradi. Ayniqsa, 1963-1964-yillarda Toshkent Davlat universitetida Kesh arxeologiya va

³ И.Усмонова. Кафедра археологии ТашГУ-50 лет. Древняя и средневековая археология Средней Азии. — Т.: "Фан", 11 страниц.



topografiya ekspeditsiyasining tashkil etilishi, unga M.Ye.Massonning rahbarlik qilishi Qashqadaryoning qadimiy yodgorliklarini tekshirish, ularning tarixiy ahamiyatini ochib berishni jonlantirib yuboradi.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash zarur-ki, Qashqadaryo vohasi nafaqat tabiiy-geografik jihatdan, balki tarixiy-madaniy merosi bilan ham O'zbekiston tarixida alohida o'rin tutadi. Vohani o'rganish bosqichlari uzluksiz ravishda davom etib kelmoqda. Olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar, xususan, S.K. Kabanov, G.A. Pugachenkova, M.Ye. Masson, A. Asqarov singari mutaxassislarning hissasi bu borada beqiyosdir. Shuningdek, Qashqadaryo vohasini yanada chuqur o'rganish, yangi arxeologik ekspeditsiyalar va zamonaviy tadqiqot metodlarini qo'llash orqali bu hudud tarixiga oid ko'plab yangi faktlar aniqlanishi mumkin. Bu esa vohaning o'tmishini yanada chuqurroq anglash va ilm-fanga boy hissa qo'shishga xizmat qiladi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. Кабанов С.К. Нахшеб на рубеже древности и средневековья (III–VII вв.) / С.К. Кабанов ; АН УзССР, Институт археологии. — Тошкент: Фан, 1977. — 136 б.
2. Ravshanov, P. Qarshi tarixi. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006. — 128 b.
3. G'ulomov, Ya. G., Islomov, U., Asqarov, A. Zarafshon vodiysi quyi oqimidagi ibtidoiy madaniyat. — Toshkent, 1966. — 92 b.
4. Yakubovskiy, A. Yu. O'zbekistonning o'rta asr shaharlari. — Moskva: Nauka, 1950. — 240 b.
5. Vyatkin, V. L. Markaziy Osiyo tarixi va arxeologiyasi. — Leningrad: Nauka, 1968. — 265 b.
6. Islomov, U. Qashqadaryo tarixi va madaniyati. — Qarshi: Nasaf, 2002. — 152 b.
7. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti. O'zbekiston tarixi (5 jildlik). — Toshkent: Sharq, 2015. — 5-jild.
8. Jo'rayev, N. Amir Temur davrida Qashqadaryo vohasi. — Toshkent: O'zbekiston, 2007. — 144 b.